

NAVOIY TAXMISLARIDA BADIY SAN'ATLAR JILOSI

Xayitova Zebuniso Raxmonali qizi
QDPI o'zbek tili va adabiyoti fakulteti magistri

Annotatsiya: *Ushbu maqolada Alisher Navoiyning taxmislarida qo'llangan badiiy san'atlar hamda badiiy tafakkur yuksakligining o'ziga xos qirralari ochib berilgan.*

Kalit so'zlar: *G'azal, taxmis, band, badiiy san'atlar.*

Annotation: *In this article, the artistic arts used in the takhmis of Alisher Navoi and the unique aspects of the high artistic thinking are revealed.*

Keywords: *Ghazal, tahmis, band, finearts.*

Аннотация: *В статье подробно анализируется гипотеза Алишера Навои о газели Хусейна, раскрываются особенности гармонии между произведениями двух великих поэтов, вершина художественного мышления.*

Ключевые слова: *газель, тахмис, оркестр, изобразительное искусство.*

She'r san'atlarini ham nazariy, ham amaliy jihatdan bilmasdan o'zbek adabiyotini, ayniqsa, she'riyatini o'rganib bo'lmaydi. Biz ham mana shuning uchun ham Navoiy muxammaslaridagi badiiy san'atlarni o'rganishga jazm etdik. Navoiy she'riyatida badiiy san'atlar shu qadar o'rinli va chiroyli qo'llanganki, she'rlarining ta'sirchanligini oshirishga katta hissa qo'shgan. Quyida Navoiy muxammaslarining badiiyatini ko'rib chiqamiz.

Xirmanani vasling to'la senda, ey xalq ahsani,
Sabzai xatting tomoshosinda, ey ko'z ravshani,
Sunbuli zulfung xayolotida, ey jon gulshani,
Donai xoling tamannosingda, ey gul xirmanani,
Rahm qilkim, chehrai zardim yoshurdi kohni.
Ahsan-eng yaxshi, go'zal, maqtov, ofarin
Zard-sariq, sariqlik, sarg'aygan yuz

Bandda yorning ta'rifi va uning go'zalligi, keyin esa oshiqning holati aks etadi. Oshiq yorga turli xil murojaat qiladi. Bandda istioralar: xirmanani vasl, sabzai xat, xalq ahsani, ko'z ravshani, sunbuli zulf, jon gulshani, gul xirmanani bilan bir qatorda " chehrai zardim yoshurdi kohni" kabi mubolag'a badiiy tasviriy vositalar yordamida oshiq kechinmalarining eng nozik qirralari ochib berishi ham ta'minlangan nido (ey xalq ahsani...), mubolag'a (chehrai zardim yashirdi kohini), tanosub (sunbul, zulf) san'atlari qo'llangan.

Gul kibi ruxsoringa har dam havo aylay dedim,
Shavqida oshufta bulbuldek navo aylay dedim,
Hajru g'am zaxmig'a vaslingdin davo aylay dedim,
Vasl aro har dam senga jonim fido aylay dedim
Nevchun, ey oromijonim, aylading mendin kanor?
Shavq-o'tkir orzu, istak, havas; o'rtanish
Kanor-qirg'oq, chet;quchoq

Gul kabi yuzingga har dam orzu aylay dedim. O'rtanishda oshufta bulbuldek navo aylay dedim. Hajr vag'am yarasiga vaslingdan davo aylay dedim. Nima uchun ey oromijonim, mendan chetda aylading. Ushbu baytda tashbex(gul kabi), tanosub(bulbul, navo), nido(ey oromijonim), mubolag'a, istiora san'atlaridan foydalanilgan. Yuqoridagi bandda ko'ngilga murojaat qilgan bo'lsa, ushbu bandda lirik qahramonyorga murojaat qilyabdi.

Nido. She'riyatimizda juda keng qo'llangan nido usuli lirik qahramonning boshqa shaxslarga, narsalarga xitob qilishi, ularga murojaat etgan holda o'zining ichki kechinmalari, tuyg'ulari, tilaklari, mulohazalarini bayon qilishini nazarda tutadi. Bu xil tasvir asardagi ma'naviy qiyofalarni jonliroq, ta'sirchanroq ifodalashga xizmat qiladi.

Navoiy bu san'atni ko'p qo'llagan. Masalan, shoir ba'zi she'rlarida o'z kechinmalarini "ko'ngil", "jon", "hajr" kabilarga to'g'ridan-to'g'ri murojaat qilish orqali tasvirlab :

Navoiy bu she'rni yozishda nido san'atini qo'llagan, ya'ni she'rni "Ey ko'ngul" degan birikmadan foydalangan. Bu bilan shoir badiiy tasvir vositalaridan hayotiy real kechinmalar tasviri uchun foydalangan.

Navoiyning

Bag'rima, ey xori hijron, har zamon sanchilmag'il,

Ey ko'ngul, yuz javr yetsa ko'zga g'ayrin ilmag'il,

Ming balo yuzlansa, ey jon, yordin ayrilmag'il,

Bo'lsa yuz ming jonim ol, ey hajr, lekin qilmag'il, .

Yorni mendin judo yoxud meni andin judo.

Xor-tikon

Ey hijronning tikani har zamon jonimga sanchilmagin. Ey ko'ngil yuz jabr etsa ko'zga g'ayrin ilmagin. Ey jon ming balo yuzlansa yordan ayrilmagin. Ey hajr bo'lsa yuz ming jonimni ol lekin yorni mendan judo yoki meni yordan judo qilmagin. Oshiqning ruhiy holatini ushbu san'at orqali yaqqol namayon bo'lgan.

Tashbixi mutlaq. "Aniq o'xshatish"

Eyki, yo'qtur husn iqlimida sendek podsho,

Oshiqingning necha tutqaysen munungdek benavo,

Nechakim bo'ldi eshikingda Navoiydek gado,

Qavma Lutfini eshiktin, ber zakoti husn ango,

Qayda etsun sen g'ani borinda shay lillohni.

G'ani-boy, ehtiyajsiz

Benavo-baxtsiz

Ey sen husn iqlimida sendek podsho yo'qdir. oshig'ingni yana qancha shundek baxtsiz qilasan. Nechakimlar eshigingda Navoiydek gado bo'ldi. Lutfiyni eshigingdan quvma, unga husn zakotini ber. Ushbu bandda oshiq emas, shoir yorga murojaat qilgan. Ushbu band tashbex asosiga qurilgan. Tashbex, tazod, mubolag'a, istiora qo'llangan.

Tashbixi kinoya. She'riy ijodda tashbix qo'llanilar ekan, ko'pincha o'xshatilayotgan narsa (mushabbix) nomi tushirib qoldiriladi-da, o'xshatilgan narsa (mushabbixun bix) nomigina saqlanadi. Ammo mushabbilni, ya'ni nima o'xshatilayotganini osongina aniqlash mumkin. Masalan:

Ishq o'tidin jismi zori notavonimo'rtading,
Qaysi jismi zorkim, ruhu ravonimo'rtading,
Parda orazdin olib jonu jahonimo'rtading,
Vahki, o'tlug' chehra ochib, xonumonimo'rtading,
Otashin la`lingdin aytib nukta jonim o'rtading.

Birinchi misradagi la'liga» so'zi aslida "yoqutiga" deb tu shuniladi. Ammo o'quvchi bu so'zda la'l labiga ma'nosini ang laydi. "Lab" so'zining tushirib qoldirilishi bayt ma'nosiga halal bermagan, aksincha, uni yanada kuchaytirgan.

Ko'z, yuzin ko'rgan zamonu ko'nglum aro qolmas qaror,
Qo'nglumo'lsa vaslig'a moyil bo'lur ko'z ashkbor,
Ishqida ko'zu ko'ngulning bir-biridin rashki bor,
Olloh-olloh bo'lur ermish muncha ham zebo yigit.
Oshub-g'avg'o, to'polon, hayajon, qo'rquv
Ashkbor-yig'lovchi, ko'z yosh to'kuvchi

Ishqning g'avg'oli balosini to ixtiyor qilibman ko'z, yuzini ko'rgan zamon ko'nglim ichida qaror qolmas. Ko'nglim vasliga moyil bo'lsa, yig'lovchi ko'z bor. Ishqida ko'z va ko'ngilning bir-biridan rashki bor. Olloh-olloh buncha ham chiroyli yigit bo'ladimi. Bandeda qo'llangan mukarrar san'ati misra ma'nosini ta'kidlash va yanada kuchayirishga xizmat qilgan.

Buyuk mutafakkir shoirimiz Alisher Navoiy ijodidagi badiiy san'atlar har tomonlama mukammal, o'zining badiiy nafosati bilan, xilma-xil ifoda usullari bilan berilgani-o'zbek tilimizning g'oyatda boyligi va go'zalligini, shuningdek nozik va teranligini yorqin hamda jonli lavhalarda ifodalashini ko'rsatib turibdi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Аlisher Navoiy. Хазойин ул-маоний. Фаройиб ус-сиғар. МАТ.3-tom. Т.:Фан. 1988.
2. Аlisher Navoiy. Хазойин ул-маоний: Наводир уш-шабоб. М АТ. 4-tom. Т.: Фан. 1989.
3. Аlisher Navoiy. Хазойин ул-маоний: Бадое ул васат. М АТ. 4-tom. Т.: Фан. 1989.
4. Аlisher Navoiy. Хазойин ул-маоний: Фавойид ул кибар. М АТ. 4-tom. Т.: Фан. 1989.
5. Абдуғафуров А. Буюк бешлик сабоқлари: Мақолалар. - Тошкент. Адабиёт ва санъат .1995.
6. Болтабоев Ҳ. Мумтоз сўз қадри (Адабий-илмий мақолалар).- Тошкент.Адолат, 2004.